

OLAMNING LISONIY TASVIRIDA ESTETIK VAHO

*Abbasova Nargiza Kabilovna, katta o‘qituvchi
Xaydaraliyeva Saodat Abdulla qizi, magistr
Farg‘ona davlat universiteti*

Annotation

Maqolada kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiyada konseptiga nisbatan har bir millatning dunyoqarashi va mentaliteti orqali olamning lisoniy manzarasini tasavvur qilish sifatida haqida so‘z boradi. Emotsional metaforik modellashtirishlar badiiy adabiyotda ko‘p va xo‘b qo‘llaniladi, ular asar bo‘yoqdorligini, ekspressivligini, o‘quvchiga pragmatik mazmunning tushunarli yetib borishini ta’minlaydi. Millat tilining konceptosferasi qanchalik boy bo‘lsa, milliy madaniyat ham shunchalik boy bo‘ladi.

Ключевые слова: концептосфера, эмоциональное метафорическое моделирование, pragmatika

Abstract

The article talks about the concept in cognitive linguistics and linguoculturology as a representation of the linguistic picture of the universe through the worldview and mentality of each nation. Emotional metaphorical modeling is used a lot and a lot in fiction, they ensure the coloring of the work, expressiveness, understandable reach of pragmatic content to the reader. The richer the conceptosphere of the language of the nation, the richer the national culture.

Keywords: *conceptosphere, emotional metaphorical modeling, pragmatika*

Аннотация

В статье рассматривается концепция в когнитивной лингвистике и лингвокультурологии как представление языкового ландшафта Вселенной через мировоззрение и менталитет каждой нации. Эмоционально-метафорическое моделирование широко и широко используется в художественной литературе, оно обеспечивает красочность, выразительность произведения, понятный доступ pragматического содержания к читателю. Чем богаче концептосфера языка нации, тем богаче национальная культура.

Ключевые слова: концептосфера, эмоциональное метафорическое моделирование, pragmatika

Kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiyada kontseptga har bir millatning dunyoqarashi va mentaliteti orqali olamning lisoniy manzarasini tasavvur qilish sifatida qaralmoqda.

Kontsept terminini o‘zbek tilshunoslari, jumladan, O‘.Yusupov, A.Nurmonov, Sh.Safarov, N.Mahmudov, D.U.Ashurova, A.E.Mamatov, B.R.Mengliev, Z.T.Xolmonova, D. Xudayberganova kabi qator olimlar ta’riflashgan.

O'.Yusupovning fikricha: kontsept bilan tushunchani aysbergga o'xshatish mumkin. Agar kontsept aysberg bo'lsa, uning suvdan chiqib turgan qismi tushunchadir. Sh.Safarov: "kontsept ko'p jihatli va ko'p o'lchovli hodisadir. Uning shakllanishi voqelikni bevosita idrok etish jarayonida o'zlashtirilayotgan bilimning inson xotirasidan bilim olishi va ushbu bilimning ma'lum ma'noda mavjud bo'lgan madaniy, ahloqiy qadriyatlar bilan moslashuvini taqozo etadi", deb yozadi. D.U.Ashurovaning fikricha, kontsept deb barcha tushunchalarni atash noto'g'ri, balki dunyo va milliy madaniyat muhitida muhim rol o'ynaydigan tushunchalargina kontsept bo'la oladi. D.Xudayberganova ham kontseptning ko'p qirrali va ko'p qatlamlı mental tuzilma ekanligini ta'riflar ekan, kontsept "bir vaqtning o'zida psixologik, kognitiv-semantic va lingvokulturologik jihatlarni namoyon etishini, chunki, kontseptning kognitiv va lingvokulturologik tadqiqotlar obyekti sifatida tavsiflanayotgani ham shundan dalolat berib" turganligini ta'kidlaydi.

B.R.Mengliev va Z.T.Xolmonovalar fikricha: "bilimlar sistema xarakteriga ega bo'lmas ekan, u tasavvurligicha qoladi. Barqaror (sistema)lashgan bilimlar kontsept tabiatiga ega bo'ladi. Kontsept mohiyatini tushuncha va so'z kategoriyalari bilan yaxlit paradigmada, ularning umumiy va farqli jihatlarini tekshirmasdan tushuntirib bo'lmaydi".

Vоqelikning inson ongida aks etish jarayoni – juda murakkab hodisa. Bunga hissiy (bunda tasavvurlar hosil bo'lishi) hamda mantiqiy bilish (bunda konsept va tushuncha hosil bo'lishi) orqali erishiladi. Ular shunday izchil va bosqichma-bosqich hodisalarki, voqealarni sezish, tuyish, idrok etish, ular haqida tasavvur, bilim va, nihoyat, tushuncha hosil qilish jarayoni ketma-ket sodir bo'ladi. B.R.Mengliev va Z.T.Xolmanova tushunchani kontseptning "mag'zi" hisoblanib, o'zbek milliy badiiy kinofilm misolida fikrlarini quyidagicha davom ettirganlar: ma'lum bir film (aytaylik, "Kelinlar qo'zg'oloni")ni ko'rayotganda voqealarni sezgi a'zolari – ko'z va quloq faoliyatiga tayanib qabul qilamiz, ong va xotiramizda mavjud bo'lgan axborot bilan qiyoslab idrok etamiz – uqamiz, tushunamiz. Shuning mahsuli o'laroq, tafakkurimizda mazkur film haqida ancha abstrakt, umumiy bir axborot (ma'lumot) hosil bo'ladi, bu – shu film haqida ongimizdagи tasavvurdир. Lekin bu manzaraviy tasavvur hali bilim yoki tushuncha emas. Tushuncha darajasiga ko'tarilish uchun tasavvur munosabatlar tizimiga kirishib, konsept darajasiga, ya'ni sistemalashgan bilim darajasiga, so'ngira bu konsept juz'iyliklardan, manzaraviylikdan xoli bo'lishi, yuksak umumiylig darajasiga ko'tarilishi lozim. Filmning muallifi, yaratilish davri, obrazlar sistemasi, syujet, kompozitsiyasi, g'oyasi, badiiy xususiyatlari, asar haqidagi fikrlar, ahamiyati (bu qatorni ancha davom ettirish mumkin) kabilar haqidagi to'liq va sistemali tasavvur hosil qilingach, konsept shakllandi deyish mumkin.

Tasavvurning yuqori darajasida yoki boshqacha qilib aytganda, ya'ni to'liq va sistemali tasavvurda konsept tug'iladi. Konseptning barqarorligi va to'liqligi,

mukammalligi va izchilligi tushunchaning sifatini belgilaydi. Tushuncha sezish-idrok-tasavvur bilan birgalikda o‘qish, eshitish, tushuntirish orqali ham qabul qilinishi mumkin. Tushuncha – materiyaning oliv mahsuli bo‘lmish miyaning yuksak darajadagi mahsuli. Tushunchaning sezgi, idrok, tasavvur va konseptdan farqi shundaki, u muayyan belgi va jihatlarni emas, balki u konseptdagi eng umumiy, eng muhim umumlashmalarnigina saqlab qoladi (qarang: Mengliyev va b., 2016: 123b.). Tahlil natijalari va fikrlardan shunday xulosaga kelamizki, demak, “konsept” ning konsept bo‘lib shakllanishida tushuncha —ozuqa vazifasini o‘taydi. Tushuncha – insonning bilim va tajriba orttirishi bo‘lsa, konsept – inson tafakkuri, ongu shuuridagi yaxlit va yig‘ma hosila konsentratdir. A.Abduaazizov so‘zlarni turli guruhlarga ajratib, ma’nolarini “semantik maydon”larda tahlil qilish va o‘z navbatida ularni alohida konseptlar sifatida qarash lozim»ligini uqtiradi. Bugungi kunda tilshunoslar konsept atrofida aylanuvchi bilimlarni konseptosferada tadqiq qilishni taklif qilmoqdalar. V.I.Vernadskiyning “noosfera” va “biosfera” terminlaridan ilhomlanib, konseptosfera terminini fanga kiritgan D.S.Lixachovning fikricha, konseptosfera bu – fikrlash doirasi bo‘lib, mental tasvirlardan iborat konseptlarning majmuidir. Millat tilining konseptosferasi qanchalik boy bo‘lsa, milliy madaniyat ham shunchalik boy bo‘ladi. Olamning lisoniy manzarasida konseptosfera til birliklari va ma’nolar majmui bilan ifodalanadi. Konseptosfera tildagi alohida so‘zlar orqali ham ifodalanishi mumkin. Bunda biror konseptga xos bo‘lgan tushuncha va ma’nolarning maydoni yoki ularning majmui konseptosferani tashkil qiladi. Konsept va konseptosfera terminlarining o‘xhash tomonlari ularning inson ongida paydo bo‘lib, biror bir obrazni tasvirlashida ko‘rinadi. Binobarin, konseptosfera fikrlash in’ikosi sifatida hamda universal bir predmetga xos ramziy birliklarning majmui sifatida insonlarning axborot doirasini tashkil qilib, u til birliklari bo‘lgan so‘z, metafora, frazeologizmlar, sintaktik struktura kabilar orqali ifodalanadi. Metafora nominativ, obrazli va ekspressiv funksiyasidan tashqari, yana konseptual vazifani ham bajaradi. Konseptual metaforaning roli ayniqsa, mavhum tushunchalarni belgilashda yaqqol ko‘rinadi. Metaforaning mazmuni asosiy va ko‘makchi komponentlarning o‘zaro ta’sirida namoyon bo‘ladi. Metafora borliqdagi turli sohalarda mavjud bo‘lgan obyektlarni nomlab, shu bilan tilning leksik va frazeologik qatlamlarini boyituvchi vositadir. Bunda «konseptual metafora avval lisoniy aks ettirilmagan hodisalarni verballashtiradi va unga borliqni yanada chuqurroq, konseptual sathda ifodalovchi vosita sifatida qaraladi. Ushbu maqolada “zoomorfizm” konsept bo‘lsa, uni qurshab olgan semantik/pragmatic maydon “konseptosfera” (termini)da yoritildi.

“Tanimdan son-sanoqsiz chumoli o‘rmalagandek, g‘alati seskanish bilan chamadonchamni o‘rindiqqa qo‘ydimu yana xotinga qaradim” (S.Ahmad, Yalpiz hidi, 56). S.Ahmad jumladagi iboraning ekspressivligini yanada oshirish maqsadida “son-sanoqsiz” so‘zlarini qo‘shtigan. Umuman, bunday emotsiyal metaforik

modellashtirishlar badiiy adabiyotda ko‘p va xo‘b qo‘llaniladi, ular asar bo‘yoqdotligini, ekspressivligini, o‘quvchiga pragmatik mazmunning tushunarli yetib borishini ta’minlaydi. Demak, olamning lisoniy manzarasini anglashda konsept va konseptosferada turli obrazlarni tadqiq va tahlil qilish tilshunoslik fani sohalari hamda tarjimashunoslik rivojiga talay yangiliklarni ochib berishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduazizov A. Tilshunosligimiz istiqbollari // Filologiya masalalari – T., 2011. – №3 B.22-25.
2. Ashurova D.U. Svyaz vuzovskix kursov s sovremenennimi napravleniyami lingvistiki// Filologiyaning dolzARB masalalari. Ma’ruza tezislari.–T., 2008.
3. Askoldov S.A. Konsept i slovo. Russkaya slovesnost: Ot teorii slovesnosti k strukture teksta: Antologiya / Pod obsh. red. V.P. Neroznaka. M.: Academia, 1997. S. 267-279.
4. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...// O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 2012. -№ 5. –B. 3-16.
5. Mengliyev B.R., Xolmanova Z.T. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi. – T., 2016. – 145 b.
6. Mixelson M.I. Russkaya misl i rech. Svoye i chujoye. Opit russkoy frazeologii. – SPb., 1896-1912. – 2208 str.
7. Popova Z.D, Sternin I.A. Semantiko-kognitivniy analiz yazika. Voronej: «Istoki», 2006. 226 s.
8. Safarov Sh. Semantika. T.: O‘zME davlat ilm. nashr., 2013 – 344 b.
9. Stepanov Yu.S. Konstanti: slovar russkoy kulturi: opit issledovaniya. – M., 1997. 824s.
10. Xudayberanova D.S. O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini. Doktorlik diss. avtoreferati. – T., 2015. – 102b.
11. Yusupov O‘.Q. Ma’no, tushuncha, konsept va lingvokulturema atamalari hususida//Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlarida. – T., 2011. – B. 49-55.
12. Yarseva V.N. Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovar. – M.: 1990. – S.559-560.
13. Black M. Models and metaphors. Studies in language and philosophy. – Ithaca London:Cornell University Press, 1962. – P.25-47. Oparina Ye.O. Konzeptualnaya metafora // Metaforav yazike i tekste. – M.: Nauka, 1988. – S.65-67.
14. A’zamjonovna, Y. S., & Odiljon qizi, Q. M. . (2022). Internetga Oid Terminlarni Ingliz Tilidan Rus Va O‘Zbek Tillariga Tarjima Qilish Xususiyatlari. Miasto Przyszlosci, 30, 252–254.
15. Yusupova, S. (2022). ИЖТИМОЙӢ ГУРУХЛАРДА ҲУРМАТ КАТЕГОРИЯСИ ИФОДАЛАШ. Science and innovation, 1(B5), 350-352.

16. A'zamjonovna, Y. S. (2022). INGLIZ TILIDA EMOTSIYALARING GRAMMATIK IFODALANISHI. PEDAGOGS jurnali, 20(2), 65-68.
17. To'lanboyeva, G., Yusupova, S., & Mirzayeva, D. (2022, November). CULTURE AND LINGUISTICS. RELATIONSHIPS. In INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS. (Vol. 1, No. 6, pp. 82-88).
18. M. Axunova, & S. Yusupova (2022). SON KATEGORIYASINING QO'LLANILISHI VA UNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QIYOSLANISHI. Science and innovation, 1 (B7), 736-739.
19. G. Tolanboyeva, & S. Yusupova (2022). LINGVOKULTUROLOGIYA O'RGANILISH TARIXI. Science and innovation, 1 (B6), 540-543.
20. Юсупова, С. А. (2022, September). ЎЗБЕК ТИЛИ ТИПОЛОГИЯСИДА ҲУРМАТ КАТЕГОРИЯСИ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE " THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS" (Vol. 1, No. 1, pp. 10-14).
21. Юсупова, С. А. (2022, September). ЎЗБЕК ТИЛИДА ҲУРМАТ ИФОДАЛАШНИНГ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION" (Vol. 1, No. 1, pp. 10-14).
22. Sabohatxon, Y., Zilolaxon, T. Y., & Shaxlo, Y. L. (2022). EXPRESSION OF METAPHOR IN DIFFERENT SYSTEM LANGUAGES. RESEARCH AND EDUCATION, 1(2), 209-212.
23. A'zamjonovna, Y. S. (2022). GARRI POTTER HIKOYASIDA ME'MORCHILIK. O'ZBEKİSTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMİY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 1103-1104.
24. Maftuna Erkin qizi, J. ., Kamilla Andreyevna, P. ., Sabohat A'zamjonovna, Y., & Farhod Faxriddinovich, U. . (2022). MEDIA DISCOURSE FEATURES. Scientific Impulse, 1(3), 561–565.
25. Odilova Mavluda To'Lqinjon Qizi, & Yusupova Sabohatxon A'Zamjonovna (2022). JAMAL KAMAL'S TRANSLATION OF SHAKESPEARE'S WORKS. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1 (12), 101-104.
26. S. Yusupova, & M. Odilova (2022). THE ROLE OF WILLIAM SHAKESPEARE IN WORLD LITERATURE. Science and innovation, 1 (B8), 1859-1862.
27. A'zamjonovna, Y. S. (2022). STYLISTIC CHARACTERISTICS OF UZBEK AND ENGLISH OFFICIAL DOCUMENTS. Journal of new century innovations, 11(8), 76-80.